ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA MUALLIF KREDOSI VA BADIIY MAHORATNING ISHLATILINISHI

TDIU Bank ishi fakulteti 3-kurs talabasi Uralova Jasmina

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning badiiy uslubi va so‘z tanlash mahorati hamda hikoyalaridagi obrazlarning tasviri atroflicha yoritib berilgan. Hikoyalarining o‘ziga xos xususiyatlari bayon etilgan. Tadqiqot natijasida adibning hikoyalarida lakonizm, chuqur psixologizm, o'tkir ijtimoiy tanqid, ramziylik, badiiy detallardan unumli foydalanish kabi jihatlar yoritilgan. Qahhor hikoyalari nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyotida ham muhim o'rin tutishi ta'kidlangan.

Kalit so`zlar: lokonizm, psixologizm, tanqid, badiiy detal, hikoya janri, munosabat, muloqot, Daxshat, Abdulla Qahhor.

Abstract: This article provides a detailed description of Abdulla Qahhor's artistic style and word choice skills, as well as the depiction of characters in his stories. The distinctive features of his stories are described. As a result of the research, such aspects as laconicism, deep psychologism, sharp social criticism, symbolism, and effective use of artistic details in the writer's stories are highlighted. It is emphasized that Qahhor's stories occupy an important place not only in Uzbek but also in world literature.

Keywords: loconism, psychologism, criticism, artistic detail, narrative genre, attitude, dialogue, Dakhshat, Abdulla Qahhor.

KIRISH. Abdulla Qahhor o’zbek adabiyotida o’zining so’zga xasisligi bilan ajralib turuvchi tanqidchi adabiyotshunos hisoblanadi. O'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Abdulla Qahhor XX asr o'zbek nasrining shakllanishi va rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan ijodkordir. Adibning "Anor", "Bemor",

"O'g'ri", "Dahshat", "Mayiz yemagan xotin" kabi hikoyalari o'zbek adabiyotining eng sara namunalari qatoriga kiradi. Qahhor hikoyalarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning badiiy-estetik qimmati, ijtimoiy ahamiyati adabiyotshunoslar tomonidan ko'p tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotning maqsadi Abdulla Qahhor hikoyalarining badiiy-g'oyaviy xususiyatlarini, adibning o'z davrini qalamga olishdagi mahoratini, hikoyalarining tuzilishi va uslubiy jihatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot uchun "Dumli odamlar" hikoyasi va "Bizning mulohazalarimiz" feletoni asosiy manba sifatida olingan bo'lib, bu asarlar orqali yozuvchining uslubi, so'z qo'llash mahorati, satira va yumordan foydalanish usullari keng tahlil qilingan. Shuningdek, adibning boshqa hikoyalari ham tahlilga tortilgan. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, Abdulla Qahhor ijodini zamonaviy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish, uning hikoyalarida aks etgan badiiy-estetik qadriyatlarni aniqlash, milliy adabiyotimiz xazinasidagi o'rnini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tadqiqotlar

o'zbek adabiyoti tarixini to'liqroq yoritishga, adabiy merosimizni chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Qahhor obrazlar tizimini ham aynan jamiyat bilan uzviy bog‘liq holda yaratadi. Uning qahramonlari ko‘pincha oddiy odamlar — dehqon, xizmatchi, bemor, ota-ona, qo‘shni yoki mahalla ahli bo‘lsa-da, ular orqali butun bir davrning ruhiy manzarasi aks ettiriladi. Yozuvchi kichik detal, lo‘nda dialog va ixcham tasvir orqali katta ijtimoiy xulosalar chiqaradi. Uning hikoyalarida ortiqcha so‘z, sun’iy patetika yoki bezakdor iboralar deyarli uchramaydi. Aksincha, sodda va ravon til ostida teran ma’no, kuchli psixologizm yashiringan bo‘ladi. Adib mavzu tanlashda, eng avvalo, oddiylik va umumiylik jihatiga e’tibor qaratadi. Hayotning ko‘zga tashlanmaydigan, ammo dolzarb nuqtalarini topib, ularni badiiy umumlashtirish darajasiga ko‘taradi. Hikoyalar sarlavhasi sodda so‘zlar bilan ifodalansa-da, ular o‘quvchini darhol muammo markaziga olib kiradi. Sarlavha asarning g‘oyaviy kaliti vazifasini bajaradi va voqealar rivoji davomida o‘z mazmunini tobora chuqurlashtirib boradi.

Bu esa yozuvchining kompozitsion mahoratini ko‘rsatadi. Uslubiy jihatdan ham Abdulla Qahhor o‘z davrining ko‘plab yozuvchilaridan ajralib turadi. Uning realizmi hayotiylik, aniqlik va psixologik chuqurlik bilan xarakterlanadi. Hajman kichik bo‘lgan hikoyalar mazmunan salmoqli, ta’sirchan va o‘quvchini o‘yga toldiruvchi xususiyatga ega. Qahhor kulgi va istehzo vositasidan ham mahorat bilan foydalanib, jamiyat illatlarini fosh etadi, biroq bu kulgi ortida achchiq haqiqat va inson taqdiriga achinish tuyg‘usi sezilib turadi. Shu bois qariyb bir asrga yaqin vaqt o‘tsa-da, Qahhor ijodi o‘z ahamiyatini yo‘qotmayapti. Uning asarlarida ko‘tarilgan insoniylik, adolat, vijdon, mehr-oqibat kabi masalalar bugungi kun uchun ham dolzarbdir. Har bir yangi avlod uning hikoyalaridan o‘z zamoniga mos ma’no topadi. Abdulla Qahhor ijodi o‘zining hayotiyligi, badiiy mukammalligi va teran ijtimoiy mazmuni bilan doimo yashaydi va yangilanib boraveradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Abdulla Qahhor hikoyalarida o‘zbek xalqining eng muhim fazilatlari — sog‘lom aql, hayotga teran nazar, vaziyatni hazil-mutoyiba va kinoya orqali anglash qobiliyati yorqin aks etadi. Yozuvchi oddiy hayotiy voqealar asosida inson xarakterini ochib berar ekan, kulgi ortida yashiringan achchiq haqiqatni mahorat bilan ifodalaydi. Uning hajviy ruhdagi hikoyalari kuldirish bilangina cheklanmay, o‘quvchini chuqur mushohadaga chorlaydi, jamiyatdagi illatlar va insoniy kamchiliklarni fosh etadi.Qahhor hikoyalarining tili nihoyatda sodda, ravon va ta’sirchandir. U ortiqcha bezaklardan, dabdaba va sun’iy balandparvozlikdan qochib, xalq og‘zaki nutqiga yaqin, maqol, matal va naqllarga boy ifoda usulini tanlaydi. Shu jihatdan uning tili an’anaviy o‘zbek nasrida uchraydigan keraksiz tasviriy cho‘zilmalar va bajamdor jumlalardan xoli bo‘lib, aniqlik va ixchamlik bilan ajralib turadi. Har bir so‘z o‘z o‘rnida qo‘llanadi, har bir jumla mazmun yukiga ega bo‘ladi.Shuningdek, Abdulla Qahhor hikoyalarida qahramonlar ruhiy holatini ochishda dialog va ichki monolog muhim o‘rin tutadi.

Yozuvchi inson ruhiyatidagi ziddiyatlarni baland shiorlar orqali emas, balki oddiy, ammo mazmunli tafsilotlar yordamida tasvirlaydi. Shu sababli Qahhor hikoyalari nafaqat o‘z davri, balki bugungi o‘quvchi uchun ham dolzarbligini yo‘qotmagan, hayotiy va ta’sirchan asarlar sifatida qadrlanadi. Abdulla Qahhor ijodi o‘zbek adabiyotshunosligida chuqur va tizimli o‘rganilgan bo‘lib, bu yo‘nalish vaqt o‘tishi bilan mustaqil ilmiy tadqiqot sohasi sifatida shakllandi. Adib asarlariga bag‘ishlangan izlanishlarda, avvalo, uning hikoyalarida inson shaxsi va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlar qanday badiiy vositalar orqali ifodalangani masalasiga alohida e’tibor qaratiladi. Qahhor prozasida ijtimoiy hayotdagi ziddiyatlar ochiq bayon qilinmay, balki qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy holati, mayda, ammo mazmunan chuqur tafsilotlar orqali yoritiladi. Shu jihatdan, uning hikoyalari psixologik tahlilga boyligi va hayotiy haqiqatni nozik ifodalash uslubi bilan ajralib turadi. Mazkur masala ilk bor adabiy tanqid doirasida G‘afur G‘ulomning nazariy va tanqidiy qarashlarida kengroq yoritilgan. G‘afur G‘ulom Abdulla Qahhor ijodini baholar ekan, uni tashqi tomondan sokin, voqealar rivoji jihatidan kamharakatdek tuyuladigan, ammo ichki dramatizm va keskin ruhiy taranglikka boy proza ustasi sifatida ta’riflaydi. Uning fikricha, Qahhor hikoyalarida muallif voqeani sun’iy ravishda keskinlashtirishga intilmaydi, balki oddiy hayotiy holatlarni tanlab, aynan shu sodda vaziyatlar orqali jamiyatdagi muhim ijtimoiy muammolarni ochib beradi. G‘afur G‘ulom adibning psixologik tahlilga tayangan holda jamiyatdagi illatlar, insoniy zaifliklar va axloqiy masalalarni ko‘rsatish mahoratini alohida e’tirof etadi.

Natija va muhokamalar.

Tadqiqot natijasida Abdulla Qahhor hikoyalarining quyidagi badiiy-estetik xususiyatlari aniqlandi:

Birinchidan, Qahhor hikoyalarining eng muhim xususiyati – ularning lakonikligi, ya'ni

qisqa va lo'ndaligi. Adib voqealarni batafsil tasvirlamay, muhim detallarni tanlab, ular orqali katta ijtimoiy muammolarni aks ettirish mahoratiga ega. Masalan, "Bemor" hikoyasi hajman juda qisqa bo'lsa-da, unda butun bir davr manzarasi, ijtimoiy tuzumning fojiali qiyofasi o'z aksini topgan. "Oz so'z bilan ko'p ma'no ifodalash" tamoyili uning barcha hikoyalarida namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, Qahhor hikoyalarida ijtimoiy tanqid ustuvor. Adib o'z davridagi ijtimoiy

adolatsizlik, ma'muriy zo'ravonlik, jaholat kabi illatlarni keskin tanqid qiladi. "Dumli odamlar" hikoyasida esa chet elliklar tasavvuridagi O'zbekiston, o'zbeklarni "ketiga po'stak bog'lab, imo-ishora bilan gaplashadigan qabila" deb o'ylaydigan yevropaliklar ustidan kinoya qilinadi. Bu hikoya orqali adib milliy g'ururni, o'z madaniyatiga hurmatni targ'ib qiladi.

Uchinchidan, "Bizning mulohazalarimiz" kabi feletonlarida Qahhor o'sha davrdagi

byurokratiya va rasmiyatchilikni tanqid qiladi. Bu feleton magazindagi navbat ro'yxati haqida bo'lib, unda adib o'ziga xos uslubda rasmiyatchilikni, byurokratiyani va sun'iy tanqidni masxara qiladi. Adib ijtimoiy hayotdagi kamchiliklarni ochib berish orqali jamiyatni sog'lomlashtirish g'oyasini ilgari suradi.

To'rtinchidan, Qahhor hikoyalarida psixologizm kuchli. Adib qahramonlarning ichki

dunyosini, ruhiy kechinmalarini tasvirlashda betakror mahorat ko'rsatgan. "Dahshat" hikoyasida Unsinning qalb iztiroblarini tasvirlash orqali davr fojealari ochib berilgan. Adibning qahramonlari murakkab ruhiy jarayonlarni boshdan kechiradi, bu esa o'zbek adabiyotida psixologik tahlil usulining taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Qahhor hikoyalarida yumordan mohirona foydalaniladi. "Dumli odamlar" hikoyasida

mehmonning dumli odamlar qidirish uchun kelishi va natijada o'zi kulgili vaziyatlarga tushib qolishi tasvirida adibning yumor hissi, kulgili vaziyatlarni yaratish mahorati namoyon bo'ladi. Adibning yumori nafaqat kulgi uyg'otadi, balki chuqur ijtimoiy ma'noni ham anglatadi. Qahhor hikoyalarida milliylik va umuminsoniylik uyg'unlashgan. "Anor" hikoyasidagi Turobjon va uning xotini o'rtasidagi munosabatlar milliy xususiyatlarga ega bo'lsa-da, unda ko'tarilgan insoniylik, muhabbat, sadoqat kabi masalalar umuminsoniy ahamiyatga ega. Shu bois, Qahhor hikoyalari dunyo xalqlari tillariga tarjima qilinib, keng o'quvchilar ommasining e'tiborini qozongan. Qahhor hikoyalarida ramziylik va majoziylik muhim o'rin tutadi. "Anor" hikoyasidagi anor ramzi orqali adib insoniy munosabatlarning murakkabligi, muhabbatning go'zalligi va nozikligi kabi chuqur falsafiy g'oyalarni ilgari suradi. Adibning har bir detali, har bir ramzi chuqur ma'no kasb etadi va ular hikoya g'oyasini ochib berishga xizmat qiladi. Qahhor hikoyalarining kompozitsion qurilishi o'ziga xos va puxta. Adib voqealar rivojini shunday tuzadiki, har bir epizod, har bir detal hikoya g'oyasini ochib berishga, konfliktni rivojlantirishga xizmat qiladi. "Mayiz yemagan xotin" hikoyasida voqealar rivojining o'ziga xos tarzda tuzilganligi, kulminatsion nuqta va yechim o'quvchini hayratga soladi.

Ayni to‘plamda iste’dodli ijodkor Ahmad Abzamning yozuvchi ijodini nafis va mohirona tahlil etgan “Mansur dard” maqolasi uchraydi, bunda muallif o‘zining badiiy asar tadqiqidagi mahoratini ham namoyon qiladi. Maqola ikki qismdan: “Hikoyaning hissiy ko‘lami” hamda “Dardning ichki tarxi” kabi bo‘limlardan iborat bo‘lib, birinchi qismda muallif Abdulla Qahhor hikoyalarini turli aspektlarda ommatan tahlil etadi. Ushbu bo‘limda yozuvchining badiiy mahoratini tasvirdagi o‘ziga xosliklar nuqtai nazaridan eritishga harakat qilgan Ahmad Abzam bu borada kompozitsiyalar ustasini yana bir bor o‘quvchiga tanishtiradi. Ekspozitsiya, peyzaj, xarakterning badiiy voqelanishidagi ustamonlik Abdulla Qahhorning kamsuqligi, bayondagi siqiqlikning

fikran anglashuvga daxli qilmasligi kabi xususiyatlar bilan yanada teranlashgani misollar yordamida isbot qilinadi. Ayniqsa, adib hikoyalarida ilk jumlaning ulkan badiiy yukka egaligi shunday izohlanadi: “Qahhor hikoyalarining boshlang‘ich jumlasi kitobxonni birdaniga asarga olib kiradi, o‘sha havo, o‘sha muhitning kayfiyatiga tushiradi. Bundan tashqari, mazkur hikoya nima haqida, u keng olamning qaysi jihatiga e’tiborni tortadi, qaysi yo‘nalishda kechadi – bular ham ilk jumladayoq sezilib qoladi”.

Bunda muallif yozuvchining “Dahshat”, “Anor”, “O‘g‘ri” hikoyalaridagi ekspozitsion jumlalarni tahlil qilib, badiiy talqinda adib erishgan yutuqlarni ko‘rsatib o‘tadi. Shuningdek, yozuvchi asarlaridagi badiiy ifodalarning poetik qurilmani eritishdagi o‘rni masalasi tadqiqiy-tahliliy maqolaning muhim jihati sifatida ko‘zga tashlanadi.

Bu masala xususida Ahmad Abzam shunday so‘z yuritadi: “Qahhor hikoyalaridagi juda ko‘p ifodalar lug‘aviy mazmuni bilan cheklanmaydi. Ular kitobxonning quvvai mulohazasiga qarab, o‘z funksiyasidan kengroq, teranroq, hikoyaning mohiyatiga aloqador tuyg‘u uyg‘otadi, kompozitsion vazifani bajaradi”.

XULOSA

Adabiyotimizning yirik vakili, o‘zbek professional prozasining oyoqqa turishida tinimsiz mehnat qilgan yozuvchi Abdulla Qahhor ijodi necha o‘n yillardan buyon

xalqimizning ongu shuurini band etib kelmoqda. Adibning badiiy mukammal hikoyalari, qaytarilmas xarakterlar talqini joy olgan qissa, roman va pesalari, aforizm darajasidagi Tesha tegmagan fikrlari hali uzoq yillar ko‘p avlodlar uchun mulohaza obyekti bo‘lib qolishi shubhasizdir. Adibning mo’jaz hikoyalari bag’riga olam olam mazmun sig’dira bilishi, har bir so’z jumla ustiga chuqur fikr yuklay olish mahoratiga tam beramiz . Uning asarlari hech qachon o’z muxlislarini yo‘qotmadi.

Qahhor hikoyalarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini o'rganish natijasida shuni ta'kidlash mumkinki, adib o'z davri ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy muammolarini chuqur anglagan holda, ularni badiiy voqelikka aylantira olgan, oddiygina turmush lavhalarida katta ijtimoiy- falsafiy ma'noni ifoda eta bilgan. Uning hikoyalari tasvirning aniq va lo'ndaligi, psixologiktahlilning chuqurligi, ijtimoiy tanqidning o'tkirligi bilan ajralib turadi. Qahhor hikoyalari bugungi kunda ham o'zining badiiy-estetik qimmatini yo'qotmagan, aksincha, zamonaviy o'quvchilarni hayotga teran nazar tashlashga, insoniy munosabatlarning murakkabligini anglashga, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni qadraylashga o'rgatmoqda. Adibning hikoyalari nafaqat o'zbek adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham munosib o'rin egallagan, ular turli tillarga tarjima qilinib, keng o'quvchilar auditoriyasining e'tiborini qozongan.

1. REFERENCES

1. Qahhor A. Tanlangan asarlar. Hikoyalar. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.
2. Qo‘shjonov M. Abdulla Qahhor mahorati. — Toshkent: Fan, 1988.
3. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. — Toshkent: Sharq, 2004.
4. Sultonov I. Abdulla Qahhor: Hayoti va ijodi. — Toshkent: O‘qituvchi, 1967.
5. Sharipova, M. (2023). O ‘ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGIDA ALPOMISHSHUNOSLIK TA’LIMOTI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ*
6. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA TALIM YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARI VA UNI SAMARALI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.